

“ZAMONAVIY TA’LIM: MUAMMO VA YECHIMLARI” ILMIY-AMALIY RESPUBLIKA KONFERENSIYASI

MAKTAB O‘QUVCHILARIDA RASM CHIZISH MALAKALARI VA IJODIY QOBILIYATLARINI OSHIRISHDA TASVIRIY SAN’ATNING O‘RNI

Muxiba Boltayevna Sulaymonova

Buxoro davlat universiteti o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab o‘quvchilarida rasm chizish malakalari va ijodiy qobiliyatlarini oshirishda tasviriy san’atning o‘rni yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: tasviriy san’at, rasm chizish, tasvirlash, tabiat, manzara, estetik munosabat, borliqni idrok etish.

THE ROLE OF FINE ART IN IMPROVING THE DRAWING SKILLS AND CREATIVE ABILITIES OF SCHOOLCHILDREN

*Suleymanova Muhiba Boltayevna teacher of
Bukhara State University*

Abstract: This article highlights the role of fine art in improving drawing skills and creative abilities of schoolchildren.

Keywords: fine art, drawing, illustration, nature, landscape, aesthetic attitude, perception of being.

O‘zbekiston umumiy o‘rta ta’lim maktablarida barcha fanlar qatori tasviriy san’atda ham bir qator muvaffaqiyatlarga erishirilmoxqda.

Ma`lumki, bolalarda tasviriy faoliyatga, xususan rasm chizishga ishtiyoq nihoyatda erta boshlanadi. Uni 2-3 yoshlardan boshlanishi tarixdan ma`lum. Shunisi xarakterlik, bolalar o`qish va yozishdan ko`ra rasm chizishni juda yoqtiradilar [1].

Boshlang‘ich sinflarda tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan minimal talablar qismida tabiatning yil fasllaridagi ko‘rinishlarini (bahor, yoz, kuz, qish.) idrok etish hamda ularning rasmini ishlash lozimligi uqtiriladi. Biroq unda bunday mavzulardagi mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni tabiatga estetik munosabatini shakllantirish haqida fikrlar bildirilmaydi.

Boshlang‘ich sinflar uchun mo‘ljallangan tasviriy san’at darslarida tushuntirish xati, borliqni idrok etish, san’atni idrok etish, naturaga qarab tasvirlash va kompozitsiya bo‘limlaridan tashkil topgan bo‘lib, uning tushuntirish xati qismida bu o‘quv predmetining asosiy vazifalaridan biri bolalarda estetik va emotsiyal sezgirlikni o’stirish deb qayd qilinadi.

Ayniqsa “Borliqni idrok etish” qismida atrof-muhitga nisbatan estetik munosabatni shakllantirishga katta o‘rin ajratiladi. Darslikda ta’lim mazmuni bayon etilar ekan unda “Borliqni idrok etish mashg‘ulotlarining vazifalari bolalarni tabiatdagi, hayotdagi, ijtimoiy hodisalardagi go‘zallikni ko‘ra bilishga va idrok etishga o‘rgatish” deb ko‘rsatiladi. Shuni alohida qayd qilish

lozimki, mazkur birinchi sinf dasturining borlikni idrok etish, kompozitsiya qismlarida tabiatni idrok etish va tabiat ko'rinishlarini tasvirlashga oid ko'plab mavzular berilgan.

Xususan, "Oltin kuz", "Bahor keldi", "Kumush qish" mavzularida tabiatni idrok etish, kompozitsiya darslarida "Kuz manzaralari", "Bahor keldi", "O'rik gullari", "Kuzgi ishlar", "Qish", "Varrak uchirish" kabi mavzularda kompozitsiya ishlash shular jumlasidandir.

Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarda tabiatga nisbatan estetik munosabatni shakllantirishga xizmat qiluvchi tasviriy san'at asarlarining ro'yxati ham beriladi. Ular N.Karaxanning "Oltin kuz", I.Haydarovning "Oltin kuz", O'.Tansiqboyevning "Tog'da kuz", "Jonajon o'lka", K.Bogoduxovning "Qorasuvda bahor", Z.Inag'omovning "Bahor" asarlaridir.

Inson va tabiat o'rtasida yangi munosabatlarni yaratish nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy va texnik vazifa, balki ma'naviy hamdir. Bu ekologik madaniyatni tarbiyalash, insonning tabiat bilan uzviy aloqasi asosida tabiatga yangicha munosabatni shakllantirish zaruratidan kelib chiqadi [2].

Bugun insoniyat oldida hech qachon bo'limganidek, tabiatga munosabatini o'zgartirish, yangi avlodning munosib tarbiya va ta'llim-tarbiya olishini ta'minlash zarurati masalasi turibdi. Jamiyatning ham milliy, ham jahon taraqqiyotining asosi inson va tabiat uyg'unligi bo'lishi kerak. Har bir inson faqat tabiat bilan uyg'unlikda, ehtimol uning Yer sayyorasida mavjudligini tushunishi kerak [3].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatga nisbatan estetik munosabatni shakllantirish bilan bog'liq mavzular ikkinchi sinfning borliqni idrok etish ("Tabiatda kuz", "Qish", "Bahor" va x.k.), naturaga qarab rasm ishlash ("O'rik guli

va bargini rasmini ishlash", "Bahorgi gullar rasmini ishlash", "Mevalar va xasharatlar rasmini ishlash"), kompozitsiya bo'limalardan ("Momaqaldiroq oldidan", "Oqshom", "Qushlar uya qurmoqda", "Daraxtlar qishda",) ham o'rinni olgan. Bu sinfda esa M.Novikovning "Qish manzarasi", "Turkistonda qish". Z.Inog'omovning "Bahor", "Arpa", R.Temurovning "Paxta dalasida oqshom", SH.Abdurashidovning

"Baxmalda yoz", I.Haydarovning "Saraton" kabi asarlarini o'rganish tavsiya etilgan.

Uchinchi sinf tasviriy san'at fani dasturidan esa "Hayvon va qushlarni idrok etish", "Baliqlarni idrok etish" mavzulari o'rinni olgan. O'rganish uchun Usta Mo'minning "Xirmon", "Anorlar", Y.Yelizarovning "Tavuzli natyurmort", O'.Tansiqboyevning "Sirdaryo", "Tog'da kuz", Q.Basharovning "O'zbekiston kuzi", "Shaftolilar", N.Karaxonning "Sari chelak ko'li", asarlari tavsiya etilgan.

To'rtinchi sinf tasviriy san'at fani dasturida tasviriy san'atning manzara, natyurmortlar janrlari haqida suhbat, bahorgi va kuzgi ishlar haqida rasmlar ishlash mavzulari berilgan.

Bu sinfda o'rganish uchun esa M.To'xtayevning "O'zbekiston kuzi", Z.Inog'omovning "Kuz", R.Chorievning "Oq tulpor", S.Abdullaevning "Olmali natyurmort", A.Xaydarovning "O'zbekiston kuzi" asarlari, shuningdek, bir qator animalist rassom va haykaltaroshlar tomonidan ishlangan qush va hayvon tasvirlarini o'rganish uchun tavsiya etilgan.

Inson zoti dunyoga kelganidan boshlab tabiat va jamiyat deb atalgan tashqi muhit bilan munosabatga kirishadi. Dastlab bu munosabat anglanmagan, intuitiv, biologik-genetik tarzda, keyinroq esa anglab etilgan, yuksak darajadagi ijtimoiy hodisa sifatida ro'y beradi [4].

Tasviriy san'atdan 5-7 sinf dasturida o'quvchilarda tabiatga estetik munosabatni shakllantirish masalasi yetarli bo'lmasada ma'lum miqdorda o'z ifodasini topgan. Mazkur dasturda tasviriy san'at o'quv predmeti vazifalari qatoriga o'quvchilarda estetik ong, estetik didni tarkib toptirish qayd qilingan.

Biroq, tabiatga estetik munosabatni shakllantirish masalasi e'tibordan chetda qolgan. Ayrim hollarda dasturning tasviriy san'at mashg'ulotlari mazmuni qismida u yoki bu mavzular yuzasidan o'tkaziladigan, san'atshunoslik asoslari, natyurmort ishlash, kompozitsion faoliyat darslarida tabiat

manzaralarini aks ettiruvchi san'at asarlari tabiat mahsulotlariga (meva-sabzavotlar, qush hayvonlarga) murojaat etish qayd qilinadi.

Masalan: Beshinchisinfda "Tasviriy san'atda tabiat tasviri" mavzusi berilgan bo'lib, bunday mavzudagi darslarda N.Qo'ziboyevning "Kuz", "Bahor", I.Levitanning "Sokolnikida kuz payti", shuningdek, N.Karaxan, O'.Tansiqboyev, Van Gog, K.Mone, A.Kuinji, A.Rilov asarlari murojaat etish ko'rsatib o'tilgan.

5-sinfda "Animalistik janr" mavzusida hayvonlar haykalini hajmli yoki yarim hajmli qilib tasvirlash ko'rsatilgan. Lekin haykaltaroshlarning qaysi asarlaridan foydalanish bayon etilmaydi. Tahlil qilingan dasturlarda tabiatga doir mavzular berilgan bo'lsada, ularda tabiatga bo'lgan estetik munosabatni shakllantirish masalasi unutilgan. Bolalarda, ko'proq o'quvchilarda rasm chizish malakalarini va ijodiy qobiliyatini o'stirish hamda ularda badiiy fikr doirasini kengaytirish vazifalari belgilangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://muhaz.org/fani-boyicha.html?page=6>
2. https://1vlk.ru/uz/work/formirovanie-ekologicheskoi-kultury-mladshih_shkolnikov-v/
3. <https://hozir.org/reja-jamiyat-rivojida-tabiatga-estetik-munosabatning-shakllani.html>
4. Yadgarov N.D., «Fazoviy almashtirishlar jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish omillari». -T.:2009-y.
5. Mamurova D. I., Ibatova N. I., Badieva D. M. The importance of using the keys-stadi innovative educational technology method in training the image module of geometric shapes //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4. – №. 1. – С. 335-338.
6. Ишанкулов Ш. Ш. и др. ЗНАЧЕНИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ //European science. – 2021. – №. 2 (58). – С. 68-70.
7. Азимова М. Б., Ибадуллаева Ш. И. XIX аср охири-XX аср бошларида Бухоро ахоли турар жойлариинтеръер безаги (Файзулла Хўжаев уй-музейи мисолида) //Евразийский научный журнал. – 2017. – №. 2.
8. Сулеймонова, М. Б., Азимов, Б. Б., Азимова, М. Б., & Тухсанова, В. Р. (2021). ДОСТИЖЕНИЕ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ И НРАВСТВЕННОЙ ЗРЕЛОСТИ ОБУЧАЮЩИХСЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ. *European science*, (3 (59)), 53-56.
9. Азимова, М. Б., Азимов, Б. Б., & Тухсанова, В. Р. (2021). ИСКУССТВО РОСПИСИ ТКАНЕЙ. *European science*, (2 (58)), 41-43.
10. Khakimova, G. A. (2020). Methods of teaching and analysis of sewing methods in applied art. *THE AMERICAN JOURNAL OF APPLIED SCINCES*, 109.
11. Ядгаров, Н. Д., & Хакимова, Г. А. (2018). Самобытное творчество народных мастеров Узбекистана. *Молодой ученый*, (15), 272-275.
12. SI Ibadullaeva. PAVEL BENKOV'S LEGACY AT THE BUKHARA MUSEUM OF FINE ARTS. International Engineering Journal For Research & ..., 2020.
13. МБ Азимова, ШИ Ибадуллаева. XIX АСР ОХИРИ - XX АСР БОШЛАРИДА БУХОРО АХОЛИ ТУРАР ЖОЙЛАРИИНТЕРЬЕР БЕЗАГИ (ФАЙЗУЛЛА ХЎЖАЕВ УЙ - МУЗЕЙИ МИСОЛИДА).
14. Ibadullaeva Shaxnoza Ilhamovna. Avlikakulova Nafisa Muzafarovna., Sobirova Sharofat Umidullayevna. HARMONIZATION OF TYPES OF FABRIC ART PROCESSING TO STUDENTS..INTERNATIONAL JOURNAL OF PSYCHOSOCIAL REHABILITATION, 1-7 ISSN:1475-7192

15. Djalolovich, Y. N., Kodirovich, M. D., Ruziboevich, S. A., & Islomovna, M. D. (2021). IMPROVING THE PROFESSIONAL TRAINING OF FINE ART TEACHERS. *European science*, (2 (58)), 44-46.
16. Samadovich, A. S., Ruzievich, S. T., Marufovich, B. M., & Mukhammedovich, A. M. (2021). THE ESSENCE AND CONTENT OF FOLK AND APPLIED ART OF UZBEKISTAN AND CENTRAL ASIA. *European science*, (2 (58)), 35-37.
17. Ibadullaeva, Sh I. "The Role of Art in the Development of Junior Schoolchildren." *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION* 2.2 (2022): 130-133.
18. Сулаймонова, М. Б. "Бухоро тарихи хакида." *Ижтимоий Фанларда Инновация онлайн илмий журнали* 1.5 (2021): 171-174.
19. Азимов, Б. Б., Азимова, М. Б., Тухсанова, В. Р., & Сулаймонова, М. Б. (2021). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ, ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОВЕДЕНИЯ БЕСЕД ОБ ИСКУССТВЕ. *European science*, (2 (58)), 38-40.
20. Sulaimonova, M. B. (2021). The World of Still Life is a World that is Motionless or that Has Become Motionless.
21. Rajabov T. I., Oripov N. O. Teaching Folklore Songs Bukhara Children in Continuous Education as a Dolzarb Methodological Problem //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 409-412.
22. Rajabov, Tokhtasin Ibodovich, and Mahliyo Feruzovna Rutamova. "The Formation of the Spiritual and Moral Qualities of Students through Folk Songs in Continuing Education is an Urgent Pedagogical Problem." *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION* 2.2 (2022): 404-408.
23. Olimov, S. S., & Mamurova, D. I. (2021). Graphic Information Processing Technology and its Importance. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 10, 1-4.
24. Mardov S. K., Khasanova M. N., Absalomov E. PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL BASIS OF TEACHING ARCHITECTURE DRAWING IN TYPES OF EDUCATION //Euro-Asia Conferences. – 2022. – С. 32-35.
25. Mamurova, F. I. (2021). Factors for Forming the Professional Competence of Building Engineers in the Context of Information Education. *EFFLATOUNIA-Multidisciplinary Journal*, 5(2).
26. Mamurova, F. I., & ugli Mustafayev, E. I. (2021). SHADOWS IN A PERSPECTIVE BUILDING. *Conferencious Online*, 16-18.
27. Mamurova, F. I., & oglu Akmalov, J. O. (2021). ORGANIZATION OF GEODESIC WORK. STATE GEODESIC NETWORKS. *Conferencious Online*, 21-23.
28. Boltaevna, Sulaimonova Mukhiba. "Improving the quality of spiritual and educational work." *Euro-Asia Conferences*. Vol. 1. No. 1. 2021.